

TARIX DARSLARIDA FANLARARO UZVIYLIK

Tashkulova Zarifa Fayziyevna

Surxondaryo viloyati, Termiz shahar

12 sonli maktab tarix fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada tarix ta'limida fanlararo uzviylikni ta'minlash vositasida ta'lim samaradorligiga erishishning ilmiy-pedagogik tamoyillari, fanlararo *uzviy bog'lanish asosida o'qitishning metodik asoslari keltirilgan.*

Kalit so'z va iboralar: *integrativ yondashuv, tarix, dars, kompetensiya, bilim, ko'nikma, malaka, klaster, integratsiya, uzviylik tamoyili.*

Tarix ta'limining uzviyligi va uzluksizligi tamoyili tarix o'quv fani mazmunining uzviyligini o'rnatishda muhim o'rin tutadi. Bu tamoyil didaktikaning muhim tamoyili– oddiydan murakkabga, noma'lumdan ma'lumga qarab borishda va oldingi o'zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda keyingilarini o'zlashtirishga tayyorlash omili sifatida kirish, umumlashtiruvchitakrorlash darslarini o'tkazishga mas'uliyatni oshiradi. O'qituvchi tarix fanlarining uzviyligini o'rnatish yuzasidan u yoki bu usullarni tanlashda ko'pgina bog'lanish holatlarini hisobga olishi lozim bo'ladi. Chunki, didaktikada o'quv jarayonining barcha tarkibiy qismlari o'zaro qonuniy bog'langanligi aniqlangan. Dastavval, darslarda asosiy maqsad va hal etilishi lozim bo'lgan aniq vazifalar aniqlanadi. Ular esa belgilangan vazifalarga erishishning yaroqli bo'lgan umumiy tarzda bir guruh usullarini yuzaga keltiradi. So'ngra bilish jarayonini maqbul tarzda amalga oshirish imkonini beruvchi maqsadga muvofiq optimal yo'llarini tanlash zarur bo'ladi. Tarix fanlarini o'qitishning asosiy vazifalari esa, o'quvchilarga davlatchiligimiz tarixi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligini anglatish, ajdodlarimizning ma'naviy merosi va jasoratlaridan ibrat olishga, ularga munosib voris bo'lishga o'rgatish, o'quvchilarni tarixiy voqealarni idrok etishga yo'naltirish orqali ularning o'zligini

anglash, shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradigan tushunchalar, milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat. Tarixni bilish jarayoni tarixiy faktlarni o‘zlashtirishdan boshlanadi. Tarixiy faktlarni o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular hech qachon aynan takrorlanmaydi. Shu bilan birga o‘quvchilar tomonidan alohida tarixiy faktlarni bilib olish - tarixni o‘zlashtirdi degan tushunchani ifoda etmaydi. Faktlar orasida mantiqiy aloqadorlik bo‘lmasa, u holda faktlarning oddiy majmuasi bilimlarni birxillashtiradi va tarixiy materiallarni ongli ravishda o‘zlashtirilishiga halaqit beradi. Shunday qilib, tarixni o‘rganish jarayonida faktlar shunchaki o‘rganilmasdan, balki ular orasidagi zarur aloqalarni taqqoslash, aniqlash va ma’lum darajada tizimlashtirib o‘zlashtirishni ta’min etmog‘i kerak. Tarixiy bilimlarni *fanlararo uzviylik asosida* o‘zlashtirish o‘quvchilar tafakkurini boyitadi. Bunday integratsiyalashgan darslar ta’lim sohalarini yuqori darajadagi mazmun yaxlitligi, dunyo va insonning tushunchalar, g‘oyalar, tamoyillar, hodisalar, mohiyatlar, tushunchalar, tasvirlarni umumlashtirish bilan birlashtiradi. Ular belgilangan haftalik mavzu yoki asosiy tushunchalar atrofida birlashtirilgan. Ta’lim sohalarining asosli kombinatsiyasi uchun didaktik–metodik komponent, dars tuzilishini o‘zgartirishni, ta’limni tashkil etish usullari va shakllarini uyg‘unlashtirishni o‘z ichiga olgan integratsiyalashgan dars texnikasi ishlab chiqilishi va eksperimental sinovdan o‘tkazilishi kerak. Biroq, integratsiyalashgan darsning ushbu didaktik va uslubiy komponenti hali ham ishlab chiqilmoqda. O‘quv fanlararo aloqadorlikni ta’minlashda o‘quvchilar idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishning turli vositalaridan unumli foydalanish. Chunonchi, aralash o‘quv kurslari bo‘yicha, muammolilik, ko‘rgazmalilik, mustaqil ishlar, individual topshiriqlar tashkil etish yordamida bunday maqsadga erishish mumkin. O‘quv fanlararo aloqadorlik asosida o‘rganilayotgan dars materiallarini o‘quvchilarga chuqurroq singdirishda boshqa dars materiallaridan foydalanish, mazkur materiallarning mazmun jihatidan o‘zaro aloqador bo‘lishi. Bunda, takrorlovchi, umumlashtiruvchi, yangi materialni o‘rganish, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat darslari ham bo‘lishi mumkin. Fanlararo aloqadorlik o‘quv jarayonining ushbu ziddiyatlarini yanada boyitadi, ular asosida

yangi qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bu o'quv predmetidan o'rganilayotgan bilimlarni o'zlashtirish va o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida masalalarni yechish va boshqa turli fanlardan bilimlarni o'zlashtirishda ularni qo'llashni bilish o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. O'quvchilarning bilish faoliyatlari va o'quv fanining uyg'unlashtirilgan mazmuni o'rtasidagi qarama-qarshiliklar asosida muammoli vaziyat yuzaga keladi. Tarix fanlarini o'qitishda umumta'lim maktablarida hamkorlikdagi ta'lim klasterlarini tashkil qilish eng samarali mexanizm bo'lib, bunda oliy va umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'zaro teng huquqli hamkorligi asosidagi ta'lim turlari integratsiyasi hamda tarix fanlarini o'qitishda kurslararo uzviylikni ta'minlashga asoslangan ta'lim mazmuni integratsiyasi muhim bo'lib, bu integratsiyalar ta'lim samaradorligini oshirishda dolzarb ahamiyatga ega. Tarix fanlarini o'qitish samaradorligini oshirishda ta'lim turlari o'rtasida tashkil qilingan ta'lim klasteri faoliyatini yo'lga qo'yish dastlab o'quv jarayonlaridagi kurslararo bog'lanishning uslubiy sharoitlari va shakllarini aniqlash, so'ngra uni amaliyotga joriy etishning pedagogik shart sharoitlari usul va vositalarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu sohaga nisbatan innovatsion yondashuv sifatidagi klaster modelini tatbiq etish shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarni o'qitishning samarali usullarini tanlashga o'rgatish uchun maktabda muayyan tashkiliy-pedagogik sharoitlar bo'lishi kerak. Tarixdan fanlararo, kurslararo va kurs ichidagi aloqalarni muvafaqqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan tarix fanlari bo'yicha mutaxassislarning tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Fanlararo bog'lanishi mumkin bo'lgan mantiqiy aloqalarni rejalashtirishda esa, ushbu aloqalar tizimi rejalashtiriladi, buning maktablardagi eng ommaviy shakllaridan biri tavqimiy-mavzuviy reja bo'lib, unda mazkur bog'lanishlarga alohida bo'lim ajratiladi. Ammo, bu yuqorida qayd etilgan kurslararo aloqalar o'rnatishning turli shakllarini hammasini ham qamrab ololmasligi ma'lum. Shunga ko'ra, ta'lim klasteri sharoitida, oliy ta'lim professor-o'qituvchilari va shu yo'nalishda tadqiqotlar olib borayotgan amaliyotchilar tomonidan DTS, dastur, darslik orasidagi izchillikni mustahkamlab, sinflar kesimida jahon va O'zbekiston tarixi darslari va darsdan tashqari shakllarga integratsion yondashish asosida ta'lim

mazmuni uzviyligi, o'quvchilarining bilim sifatini DTSga muvofiqligini ta'minlovchi tarix darslarini mavzuiy rejalashtirish va har bir mavzu yuzasidan o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qo'yiladigan minimal talablar bo'yicha uslubiy tavsiyalar tayyorlab o'quv jarayoniga tatbiq etilishi dolzarb masalalardan sanaladi. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 6 va 8-sinf O'zbekiston tarixi darsliklarida quyidagi mavzularni integratsiyalash maqsadga muvofiq va darslikni bir qadar ixchamlashtirishga o'quv yuklamasining qisqarishiga olib kelgan bo'lar edi. Bunda ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga bog'liq ravishda ta'limning tabaqalashtirish imkoniyatlari hisobga olinishi maqsadga muvofiq. O'qituvchilar tomonidan dars berish uslublari to'g'ri tanlanishi, tarix ta'limining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari hamda ilmiy muammo maqsadini to'laqonli ro'yobga chiqarilishiga xizmat qiladi. Xulosa, fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars mavzulari turli fanlardan bilimlarning bog'liqligiga tayanuvchi dunyoqarash, umumlashtirilgan xususiyatga ega bo'lgan xulosalardan tashkil topishi lozim. O'quvchilar bunday xulosalarning obyektivligini faqat o'zaro yaqin fanlardan bilimlarni jalb etish zarurligiga ishonch hosil qilgandagina anglashlari mumkin. O'quv fanlariaro aloqadorlikni qo'llash asosida o'tilgan dars o'quvchilarda ijobiy taassurotlar uyg'otishi, ularda turli fanlardan olgan bilimlari o'rtasidagi tafovutlar, bog'liqliklarni bilib olishga qiziqish hosil qilishi lozim. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan o'quv materiallari umumlashtirilishi lozim. Shuning uchun, o'quv fanlariaro aloqadorlikning vazifalarini umumlashtirishni ta'minlovchi ta'limning turli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir: mujassamlashtirilgan uy vazifalari, umumlashtiruvchi takrorlash darslari, sayohat darslar va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тошпўлатов Т., Я.Ғаффоров. Тарих ўқитиш методикаси. Т.Турон-Иқбол, 2010 й.
2. Ochilov M. «Yangi pedagogik texnologiyalar» /Qo`llanma. -Qarshi: Nasaf, 2000.
3. Данилюк А. Я. Учебный предмет как интегрированная система. Педагогика. 2007. № 4. С. 24–29.
4. Турдикулов Э.О. Ҳозирги замон табиёт фанлари мазмуни ва уларни интеграциялаб ўқитиш муаммолари// Фанларни интеграциялаб ўқитишнинг педагогик шарт–шароитлари: Республика илмий–амалий конференция материаллари. – Тошкент: ЎзПФТИ., 2007. – б.